



**Abu al-Hasan al-Rustughfani: Movarounnahrda kalom olimi va Moturidiya maktabiga qo'shgan hissasi.**

**Nasrullayev Javohir Jasur o'g'li.**

**Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universititi Tarix Fakultiti Tarix yunalishi 1-kurs talabasi.**

**Annotatsiya:** Maqola Abu al-Hasan al-Rustughfani Samarqand viloyatining Rustug'fon qishlog'ida tug'ilgan, Imom Abu Mansur al-Maturidiyning eng muhim shogirdlaridan biri hamda Moturidiy maktabining rivojlanishiga asos soluvchi olimlardan biri sifatidagi ilmiy o'rni va hissasini tadqiq qiladi. Uning kalom ilmiga, xususan "ahl al-sunna va al-jama'a" terminining sistematik qo'llanilishiga, Allohning sifatlari, Qur'onning ma'jizaligi va ilohiy nutq masalalaridagi qarashlariga alohida e'tibor qaratiladi. Al-Rustughfanining "Irshad al-Muhtadi", "Kitab fi al-khilaf" kabi asarlari va keyingi avlodlarga, xususan Abu al-Mu'in al-Nasafiya ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Moturidiylik, kalom ilmi, Movarounnahr, al-Rustughfani, al-Moturidiy, hanafiylik.

**Abstract:** The article examines the scientific role and contribution of Abu al-Hasan al-Rustughfani, born in the village of Rustug'fan in the Samarkand region, as one of the most important students of Imam Abu Mansur al-Maturidi and one of the founding scholars in the development of the Maturidi school. Special attention is paid to his theology, in particular, the systematic use of the term "ahl al-sunna wa al-jama'a", his views on the attributes of Allah, the miracle of the Quran and divine speech. Al-Rustughfani's works such as "Irshad al-Muhtadi", "Kitab fi al-khilaf" and his influence on later generations, in particular Abu al-Mu'in al-Nasafi, are analyzed.

**Keywords:** Maturidiism, theology, Mawarounnahr, al-Rustughfani, al-Maturidi, Hanafiism.

**Аннотация:** В статье рассматривается научная роль и вклад Абу аль-Хасана аль-Рустугфани, родившегося в селе Рустугфан Самаркандской области, как одного из важнейших учеников имама Абу Мансура аль-Матуриди и одного из основоположников развития школы Матуриди. Особое внимание уделяется его богословию, в частности, систематическому использованию термина «ахль ас-сунна ва аль-джама'а», его взглядам на атрибуты Аллаха, чудо Корана и божественную речь. Анализируются работы аль-Рустугфани, такие как «Иршад аль-Мухтади», «Китаб фи аль-хилаф», и его влияние на последующие поколения, в частности на Абу аль-Му'ина аль-Насафи.



**Ключевые слова:** Мотуридийя, теология, Маваруннахр, ар-Рустуфани, аль-Мотуридийя, Ханафия.

**Kirish:** Movarounnahr IX–X asrlarda Islom ilohiyoti va kalom ilmining rivojlanishida markaziy rol o'ynagan mintqa hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu hudud, xususan Samarqand va uning atrofidagi qishloqlar, sunniy ilohiyotning ikki ulug' maktabidan biri Moturidiy maktabining vataniga aylandi<sup>2</sup>. Abu al-Hassan Ali ibn Sa'id al-Rustughfani aynan shu ilmiy an'ananing shakllanish davrida faoliyat yuritgan va o'z ustozini Abu Mansur al-Maturidiyning (853-944 yillarda) g'oyalarini sistemalashtirishda, rivojlantirishda va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynagan olimdir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, al-Rustughfani haqidagi ilmiy ma'lumotlar nisbatan cheklangan bo'lsa-da, uning Moturidiy maktabining shakllanishidagi o'rni katta. U al-Maturidiyning eng yaxshi shogirdlaridan biri bo'lib, ustozining kalomiy qarashlarini rivojlantirgan, bir qator asarlar yozgan va keyingi Moturidiy olimlari, jumladan Abu al-Mu'in al-Nasafiya ta'sir ko'rsatgan<sup>3</sup>. Shu sababli uning shaxsiyati va ilmiy merosini tadqiq qilish nafaqat Moturidiy maktabining tarixini chuqurroq tushunish, balki Movarounnahrda sunniy ilohiyotning shakllanish jarayonlarini yoritish uchun muhim ahamiyatga ega.

1. Harvey, R. (2021). The Case of the Missing Disciple: Abul Hasan al-Rustughfani and the First Reception of al-Maturidi's Theology in Samarqand. *Oriens*, [13–15-betlar].
2. Rudolph, U. (2015). Al-Maturidi and the Development of Sunni Theology in Samarqand. Brill, [45–50-betlar].
3. Harvey, R. (2021). *Oriens*, [20-bet].

**Hayoti va ilmiy muhiti:** Abu al-Hassan Ali ibn Sa'id al-Rustughfani (853-956yillarda) Samarqandning viloyati Rustug'fon qishlog'ida tug'ilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi<sup>4</sup>. (Bu joy hozirgi Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi Azamat jamo uyishmasi Boylata qishlog'ida joylashgan). Arab tilidagi "al-Rustughfani" nisba bu qishloq nomidan olingan bo'lib, as-Sam'oniyning "Kitab al-Ansab" asarida va Ibn al-Asirning "Al-Lubab fi tahzib al-Ansab" kitobida bu qishloq Samarqandga qarashli qishloqlardan biri sifatida qayd etilgan. Rustug'foniy o'z davrining eng yetuk faqih (huquqshunos), mutakallim (teolog) va muhaddisi bo'lgan<sup>5</sup>. U Imom Moturidiyning darslarida faol qatnashgan va ustozini vafotidan so'ng uning maktabini davom ettirgan



asosiy shaxslardan biri hisoblangan. Al-Rustughfani Samarqandda ilm olgan, bu shahar o'sha davrda Movarounnahrning ilmiy markazi hisoblanardi. Samarqandda Hanafiy fiqhi va kalom ilmi keng tarqalgan, bu muhit al-Rustughfanining ilmiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan <sup>6</sup>. U katta olim va fuzalo sifatida tanilgan, Samarqandning eng yirik shayxlari va olimlaridan biri deb e'tirof etilgan.

- 
4. As-Sam'ani. Kitab al-Ansab, [1-jild, 120-bet].
  5. Ibn al-Asir. Al-Lubab fi tahzib al-Ansab, [2-jild, 75-bet].
  6. Dr. Ramon Harveyning Oriens, [21-22 bet]

**Ustozi Abu Mansur al-Moturidi:** Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Maturidi 853-944 yillarda Samarqand yaqinidagi Maturid qishlog'ida tug'ilgan, sunniy kalom ilmining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi<sup>7</sup>. Ahl al-sunnaning ikki buyuk imomidan biri bo'lib, o'z davrida "Imom al-Huda" (Hidoyat Imomi) laqabi bilan mashhur edi. U Abu Nasr al-Ayodiy va Abu Bakr Ahmad al-Javzajaniy kabi olimlardan ilm olgan. Al-Maturidiyning eng muhim shogirdlari orasida Abu al-Hasan al-Rustughfani, Abu Muhammad Abd al-Karim ibn Musa ibn Isa al-Bazdoviy va Abu al-Qasim Ishaq ibn Muhammad al-Hakim al-Samarqandiy kabi olimlar bor edi. Al-Rustughfani ustozining eng yaqin va sadoqatli shogirdlaridan biri bo'lib, uning g'oyalari eng yaxshi tushungan va rivojlantirgan shogird edi. Al-Maturidi va al-Rustughfani o'rtasidagi munosabatlar nafaqat shogird-ustoz munosabatlaridan iborat edi. Ba'zi manbalarda ular o'rtasidagi ilmiy munozaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Muhiddin al-Qurashiyning "Al-Javohir al-muziyya fi tabaqat al-Hanafiyya" asarida al-Maturidi va al-Rustughfani o'rtasida ba'zi fiqhiy masalalar bo'yicha turli nuqtai nazarlarning mavjudligi qayd etiladi. Bu ular o'rtasidagi ilmiy munozaralar va fikr almashinuvining borligini ko'rsatadi. Al-Maturidiyning al-Rustughfaniga ta'siri katta bo'lib, u ustozining kalomiy uslubini, rationalist yondashuvini va Mu'tazilaga qarshi dalillash usullarini o'zlashtirdi va rivojlantirdi. Al-Rustughfani al-Maturidiyning "Kitab al-Tavhid" asaridagi g'oyalarni davom ettirgan va ularni yanada chuqurlashtirgan.

- 
7. Al-Qurashi, Muhiddin. Al-Jawahir al-mudiyya fi tabaqat al-Hanafiyya, [1-jild, 210-bet].

**Ilmiy faoliyati:** Al-Rustughfani kalom ilmi va Islom ilohiyoti sohasida faol ilmiy



faoliyat olib borgan. U Abu Mansur al-Maturidiyning kalom maktabining asosiy tamoyillarini rivojlantirgan, xususan "ahl al-sunna va al-jama'a" terminining sistematik qo'llanilishi va izohlanishida muhim rol o'ynagan. Dr. Ramon Harveyning (Buyuk Britaniya Islomshunos olimi) tadqiqotlariga ko'ra<sup>8</sup>, al-Rustughfani Samarqandiy Hanafiy kalom an'anasida "ahl al-sunna va al-jama'a" terminini o'z teologik identitetini ifodalash uchun xususiy ravishda qabul qilgan eng dastlabki shaxs bo'lib, bu uning Moturidiy maktabining shakllanishidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Al-Rustughfani ilmiy uslubi jihatidan ustoz al-Maturidiyga yaqin bo'lib, rationalist kalom va Hanafiy an'anaviyligini uyg'unlashtirgan<sup>9</sup>. U Mu'tazila va boshqa bid'atchilar bilan polemika olib borgan, ularning g'oyalarini mantiqiy dalillar bilan rad etgan. Xususan, u Allohning sifatleri, Qur'onning ma'jizaligi va ilohiy nutq masalalarida al-Maturidiyning qarashlarini rivojlantirgan. Dr. Harveyning tadqiqotlariga ko'ra, al-Rustughfani Allohning nutqi va Qur'on masalasida al-Maturidiyning rationalist kalomi va al-Hakim al-Samarqandiyning Hanafiy an'anaviyligi o'rtasidagi ko'priklar vazifasini o'tagan deb aytadi<sup>10</sup>. U Qur'onning ma'jizaligini uch jihatdan izohlagan;

1. Qur'on Allohning abadiy ilohiy nutqi bilan bog'liqdir.
2. Qur'on arab tilining eng yuksak fasohati darajasida bo'lib, insonlar uni takrorlay olmaydi.
3. Qur'on Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ummati uchun ilohiy himoya ostida saqlangan muqaddas matn hisoblanadi.

Bu qarashlar Moturidiy kalom maktabining keyingi rivojida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

- 
8. Harvey, R. (2021). Oriens, [25–27-betlar].
  9. Harvey, R. (2021). Oriens, [30-bet].
  10. Rudolph, U. (2015). Brill, [90-bet].

**Asarlari va ilmiy merosi:** Al-Rustughfani bir qator asarlar yozgan, ulardan ba'zilari bizgacha yetib kelgan, ba'zilari esa tarix davomida yo'qolgan.

1. "Kitobi al-Irshad al-Muhtadi" ("To'g'ri yo'lga boshlovchi qo'llanma"): Bu asar kalom



ilmiga bag'ishlangan bo'lib, al-Rustughfani ustoz al-Maturidiyning g'oyalarini tushuntiradi. Abu al-Mu'in al-Nasafiy ( 508/1114) o'zining "Tabsirat al-adilla" asarida al-Rustughfanining bu asaridan iqtiboslar keltirgan<sup>11</sup>.

2. "Kitab fi al-khilaf" ("Khilaf haqida kitob"): Bu asar turli diniy oqimlar o'rtasidagi ziddiyatlar va ularning ta'limotlarini tavsiflaydi. U IX–X asrlarda mavjud bo'lgan turli firqalar va guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishga qaratilgan.

3. "Kitab al-zavaid va al-favaid" ("Zavayid va foydali narsalar haqida kitob"): Abdulhay al-Laknaviyning so'zlariga ko'ra<sup>12</sup>, bu asar turli ilm va ta'lim sohalarini tavsiflashga bag'ishlangan bo'lib, o'rta asrlarda yuqori rivojlangan turli ilmiy sohalarini tavsiflovchi maxsus kitoblardan biri bo'lishi mumkin.

4. "Bab al-mutafariqat min fava'id" va "Al-As'ila wa al-ajviba": Dr. Ramon Harveyning tadqiqotlariga ko'ra<sup>13</sup>, bu matnlar al-Rustughfanining teologik javoblarini o'z ichiga oladi va Samarqandning IV-X asrdagi polemik muhitida uning teologik qarashlarini ko'rsatadi.

Al-Rustughfani Moturidiy maktabining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U ustoz al-Maturidiyning g'oyalarini sistemlashtirgan, keyingi avlodlarga yetkazgan. Abu al-Mu'in al-Nasafiy, keyingi davr Moturidiy olimlaridan biri, al-Rustughfanining asarlaridan foydalangan va uni o'z asarlarida iqtiboslar keltirganini ko'rishimiz mumkin. Bu al-Rustughfanining ilmiy merosining uzluksizligini va keyingi avlodlarga ta'sirini ko'rsatadiganligini kurishimiz mumkin.

---

11. Abu al-Mu'in al-Nasafi. Tabsirat al-adilla, [1-jild, 35-bet].

12. Al-Laknawi, Abdulhay. Al-Fawa'id al-bahiyya fi tarajim al-Hanafiyya, [150-bet].

13. Harvey, R. (2021). Oriens, [40-bet].

**Xulosa:** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abu al-Hasan al-Rustughfani Movarounnahr ilmiy muhitida nafaqat Imom Abu Mansur al-Maturidiyning yaqin shogirdi, balki uning ta'limotini tizimlashtirgan va rivojlantirgan muhim kalom olimlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. U Moturidiy maktabining dastlabki shakllanish bosqichida nazariy asoslarni mustahkamlab, kalom ilmining asosiy masalalarini — xususan, Allohning sifatleri, ilohiy nutq va Qur'onning mohiyati kabi muammolarni izchil va mantiqiy asosda tahlil qilgan. Shuningdek, al-Rustughfanining "ahl al-sunna va al-jama'a" tushunchasini teologik identitet sifatida shakllantirishdagi o'rnini uning ilmiy merosining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. U o'z asarlari orqali



nafaqat ustozining g'oyalarini davom ettirgan, balki ularni keyingi avlod olimlariga yetkazishda muhim ko'priq vazifasini bajargan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, al-Rustughfanining ilmiy merosi Moturidiylikning shakllanishi va rivojlanish jarayonida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan hamda keyingi kalom olimlari, xususan Abu al-Mu'in al-Nasafiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu jihatdan, uning faoliyatini chuqur o'rganish Movarounnahrda sunniy ilohiyot tarixini yanada mukammal anglashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Abu al-Hasan al-Rustughfani nafaqat o'z davrining yirik mutakallimi, balki Moturidiy ta'limotining shakllanishi va mustahkamlanishida hal qiluvchi o'rin tutgan ilmiy shaxs sifatida e'tirof etilishi lozim. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham islom ilohiyoti tadqiqotlarida muhim manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Harvey, R. (2021). The Case of the Missing Disciple: Abu l-Hasan al-Rustughfani and the First Reception of al-Maturidi's Theology in Samarqand. Oriens.
2. Rudolph, U. (2015). Al-Maturidi and the Development of Sunni Theology in Samarqand, Brill.
3. As-Sam'ani. Kitab al-Ansab.
4. Ibn al-Asir. Al-Lubab fi tahzib al-Ansab.
5. Al-Qurashi, Muhiddin. Al-Jawahir al-mudiyya fi tabaqat al-Hanafiyya.
6. Al-Laknawi, Abdulhay. Al-Fawa'id al-bahiyya fi tarajim al-Hanafiyya.
7. Abu al-Mu'in al-Nasafi. Tabsirat al-adilla.
8. Ubaydulla „Uvatov Buyuk Yurt allomalari” \_ 2018